

О‘ЗBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TURLI SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI

Esanova Nilufar, Iqtisodiyot va pedagogika

universiteti katta o‘qituvchisi

Baxriddinova Feruza, Iqtisodiyot va pedagogika

universiteti, Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi

Mustaqillik yillarida iqtisodiyotning hayotiy muhim tarmoqlari rivojlantirildi, yangi sanoat tarmoqlari bunyod etildi. Bunga mamlakatning yoqilgi mustaqilligiga erishishi yoqqol misoldir. 90-yillarning boshlarida chetdan 6 million tonnaga yaqin neft mahsulotlari keltirilar, 600 ming tonna paxta tolasi Rossiya va boshqa mamlakatlarga neft mahsulotlari uchun berilardi. Shu boisdan mamlakatimizda neft mustaqilligi uchun kurash boshlandi, buning zamini-2 trillion kubmetrga yaqin gaz zahiralari, 160 dan ortiq neft koni bor edi. Yiliga 2,5 mlrd. kub metr gaz haydash quvvatiga ega bo‘lgan Ko‘kdumaloq kompressor stantsiyasi, Buxoro neftni qayta ishlash zavodi barpo etildi. 1996 yilga kelib chetdan neft mahsulotlarini sotib olish to‘xtadi, neft mustaqilligiga erishildi. 1991 yilda 2,9 mln. tonna neft (gaz kondensati bilan birgalikda) mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2000 yilda bu ko‘rsatkich 7,5 mln. tonnadan oshdi. Shu davrda tabiiy gaz ishlab chiqarish 41,8 mlrd. kub metr dan 56,4 mlrd. kub metrga o‘tdi. O‘zbekiston yoqilgi mustaqilligiga erishdi.

Mustaqillik yillarida mashinasozlik sanoati jadal rivojlandi. 1994 yilda barpo etilgan O‘zbekiston-Isroil «O‘zmash» qo‘shma korxonasida paxta terish mashinalarining gorizontal shpindelli yangi xili yaratildi. Bu agregat jahon mashinasozligining eng yangi yutug‘idir, deb e‘tirof etildi.

1992 yilda Janubiy Koreya bilan hamkorlikda O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqaruvchi korxona barpo etishga kelishib olindi. 1993-1996 yillarda Asaka shahrida

«O'zDEU avto» zavodi barpo etildi va Damas, Tiko, Neksiya rusumli avtomobillar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. 1996 yilda 25,3 ming, 1997 yilda 64,9 ming, 1998 yilda 54,4 ming, 1999 yilda 58,4 ming, 2000 yilda 31,3 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarildi. «O'zDEU» zavodida 1999 yil oktyabr oyidan boshlab «Neksiya-2», «Matiz» rusumli avtomobillar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga kirishildi. 2001 yil avgustda «Matiz» rusumli foydalanishga eng qulay avtomobillar ishlab chiqarila boshlandi. O'zbekiston dunyoda avtomobil ishlab chiqaruvchi 28-mamlakatga aylandi. Samarqandda avtobus va yuk mashinalari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan «Sam Koch avto» zavodi qurildi. 2000 yilda «Sam Koch avto» zavodi 483 dona avtobuslar ishlab chiqardi. Respublikamizda avtomobillarga butlovchi qismlar ishlab chiqaruvchi o'nlab yangi korxonalar bunyod etildi. Hozirgi paytda «O'zDEU» zavodi uchun zarur bo'lgan butlovchi qismlarning 20 foizi O'zbekistonda ishlab chiqarilmoqda. Avtomobilsozlik sanoatida 14 mingga yaqin ishchi va xizmatchi mehnat qilmoqda.

Mashinasozlik sanoatining yirik korxonalari-Toshkent traktor zavodi, O'zbekiston qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent va Chirchiq qishloq xo'jaligi mashinasozligi, Toshkent agregat zavodi va boshqa korxonalar mustaqillikning dastlabki yillarida uchragan qiyinchiliklarni yengib o'tdi. Birgina Toshkent traktor zavodi 2000 yilda 954 ta, 2001 yilda 1002 ta traktor ishlab chiqardi.

1995 yil oktyabr oyida O'zbekiston bilan AO'Sh ning «ABB Lummus Global» kompaniyasi o'rtasida Sho'rton gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yildi. O'urilish ishlari 1997-2001 yillarda amalga oshirildi, majmua qurilishida 1mlrd. AO'Sh dollari hajmida sarmoya o'zlashtirildi. 2001 yil dekabrda Sho'rton gaz-kimyo majmuasi ishga tushirildi. Majmua yiliga 125 ming tonna polietilen, 137 ming tonna suyultirilgan gaz va 126 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Yengil va to'qimachilik sanoati tez sur'atlar bilan rivojlanib bormoqda. Paxtani qayta ishlovchi «O'abul-O'zbekKO», «Kosonsoy-Tekmen», «Papfen», «Asnam tekstil», «Karakulteks», «Chinoz to'qimachi», «Kabul-Farg'ona», «Oq saroy

to'qimachi» qo'shma korxonlari qurilib ishga tushirildi. Bu tarmoqda xalq ist'emoli mollari ishlab chiqarish kengaydi, minglab yangi ish o'rinlari yaratildi. Agar 1991 yili respublikamizda paxta ishlash 12 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2001 yilda bu ko'rsatkich 24 foizga yetdi. Kalava, ip, paxta va shoyi gazlamalarini eksport qilish hajmlari ancha oshdi.

Mustaqillik yillarida «Zaravshon-Nyumont» korxonasi, Qizilqum fosforit kombinati, O'ung'irod soda zavodi, O'ugasoy kvarts zavodi, Yangiyo'l va Andijon spirt zavodlari, Toshloq ip yigiruv fabrikasi va boshqa ko'plab korxonalar bunyod etildi.

O'ishloq xo'jaligida ishlab chiqarish tarkibini takomillashtirishga e'tibor berildi. Xo'jaliklar qanday ekin ekish sohasida mustaqil bo'ldilar. Respublikada don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashni tiklash yo'li izchillik bilan amalga oshirildi. Paxta ekiladigan maydonlar tegishli suratda qisqartirilib, donli ekinlar maydoni kengaytirildi. Umumiy ekin maydonlarida donli ekinlar salmog'i 1991 yilda 18,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yilda 42 foizga o'sdi.

Respublikamizda don mustaqilligiga erishish, shakar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlash yo'li izchillik amalga oshirilmoqda. Agar 1990 yilda mamlakatimizda 2 mln. tonna g'alla olingan bo'lsa, 2000 yilda 4 mln. tonna g'alla yetishtirildi. 1990 yilda 554 ming tonna bug'doy yetishtirilgan bo'lsa, 2000 yilda 3,6 mln. tonnaga yaqin buqdoy olindi. O'zbekiston don mustaqilligiga erishdi.

Andijon paxtakorlari tashabbusi bilan chigitni plyonka ostiga ekish texnologiyasi joriy etildi. Bu usul paxtadan sifatli va yuqori hosil yetishtirish imkonini yaratdi.

Iqtisodiyot tarkibidagi tub o'zgarishlar, yangi korxonalarning bunyod etilishi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasida samarali natijalar berdi. 1994-2000 yillarda iqtisodga jalb etilgan sarmoyalar 24,4 mlrd. AO'Sh dollarini tashkil etdi. Mustaqillik yillarida 1713 korxona va boshqa ishlab chiqarish muassasalari qurildi, mahsulotning 8,5 mingdan ortiq yangi turlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. 1990

yilda Respublika bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmini 100 foiz deb olsak, undan keyingi yillarda kamayib, 1992 yilda 94,7 foizga, 1993 yilda 98,1 foizga tushgan edi. 1995 yilga kelib makroiqtisodiyotda barqarorlikka erishildi va 1996 yildan boshlab barqaror o'sish ta'minlanmoqda. 1997 yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 1996 yilga nisbatan 106,5 foizga, 1998 yilda 1997 yilga nisbatan 105,8 foizga, 1999 yilda 1998 yilga nisbatan 106,1 foizga, 2000 yilda 1999 yilga nisbatan 106,4 foizga, 2001 yilda 2000 yilga nisbatan 108,1 foizga o'sdi. Un va un mahsulotlari, kiyim-kechak, poyabzal, shakar va qand mahsulotlari ishlab chiqarish sezilarli darajada ko'paydi, iste'mol buyumlari importi kamaydi. Istiqlolning dastlabki yillarida respublikamiz importida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 73,8 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1998 yilda bu ko'rsatkich 15,6 foizga tushdi. Rangli metallar, kalava ip, avtomobillar, kimyoviy shtapel tola, paxta, oltin eksporti o'sib bormoqda. 1998 yilda tashqi savdo oboroti qariyb 9 mlrd. AO'Sh dollarini tashkil etdi. O'zbekistonda yuritilgan mustaqil samarali iqtisodiy siyosat yalpi ichki mahsulotning o'sishini ta'minladi. Yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish 1991-1995 yillarda pasayib bordi, 1996 yildan boshlab o'sish boshlandi. Oldingi yilga nisbatan 1996 yilda YaIM 101,7 foizga, 1997 yilda 105,2 foizga, 1998 yilda 104,4 foizga, 1999 yilda 104,4 foizga, 2000 yilda 104 foizga, 2001 yilda 104,5 foizga o'sdi.

2001 yilda birinchi bor Yalpi ichki mahsulotning 1991 yilga nisbatan 103 foiz o'sishiga erishildi. MDH davlatlari orasida birinchi bo'lib O'zbekiston iqtisodiy barqarorlikka erishgan, iqtisodiy ko'rsatkichlar izchil o'sib borayotgan mamlakatdir.

Shahar va qishloqlarimizning qiyofasi o'zgarib, aholi turmush saviyasi o'sib bormoqda. Yirik inshootlar, korxonalarning bunyod etilishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar, izchil o'sish sur'atlari odamlarning moddiy va ijtimoiy hayotini, farovonligini yildan yilga yaxshilanishiga zamin bo'lmoqda. Aholini tabiiy gaz, ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi salmoqli darajada o'sdi. Birgina 1999 yilda 4,5 ming km gaz tarmog'i-shundan 4,3 ming kilometri qishloq joylarida, 2 ming km.dan

ziyod ichimlik suv tarmog'i - shundan 1,9 ming kilometri qishloq joylarida ishga tushirildi¹.

Jahondagi yetakchi firmalarning havo kemalari bilan ta'minlangan O'zbekiston havo yo'llari aviakompaniyasi dunyoning 25 mamlakati bilan havo aloqlarini o'rnatgan, u mustaqillik yillarida 20 milliondan ko'p yo'lovchiga xizmat qildi.

Respublikada Markaziy Osiyodagi eng yirik birja markazi faoliyat ko'rsatmoqda. U zamonaviy kompyuter texnikasi va tele-alloqa tizimi bilan jihozlangan.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Mamatqulov, B. S. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT TARMOQLARINING RIVOJLANISHI: TARIXIY TAHLIL VA OQIBATLAR (XX-ASRNING 30-40 y.). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 33-39.

2. MAMATQULOV, B. (2024). O 'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARIDA SANOAT KORXONALARINING TASHKIL ETILISHI VA HUDUDLAR SANOATINING IXTISOSLASHUVI JARAYONINING TARIXIY TAHLILI (1930-1950 yy). *Acta NUUz*, 1(1.2. 1).

3. Sherozovich, M. B. (2024). INDUSTRIAL MEASURES IN UZBEKISTAN 1925-1954 AND THEIR RESULTS (in the case of Kashkadarya and Surkhandarya regions). *World scientific research journal*, 24(1), 195-200.

4. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.

5. Esanova, N. (2024). QASHQADARYO SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK MEXANIZMINING YARATILISHI. *Interpretation and researches*.

¹ Xalq so'zi, 2000 yil 15 fevral

6. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.
7. Nilufar, E. (2024). MUSTAQILLIK YILLARIDA YIRIK SANOAT SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. *Modern education and development*, 16(5), 250-259.
8. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 158-161).
9. Mamatkulov, B. (2021). Conflicts of the process of the industrial staff training in the soviet period. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 507-510.
10. Mamatkulov, B. (2021, November). A New Interpretation of Industry in Uzbekistan During Independence. In " *ONLINE-CONFERENCES*" PLATFORM (pp. 158-161).
11. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.